

SUN'IY INTELLEKT MUHITIDA INGLIZ TILINI MUSTAQIL O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ayyubxon Tursunboyev Adxamjon o'g'li

Namangan Davlat Pedagogika Instituti, 1-bosqich tayanch doktoranti

Tel: +99894 070 07 30 Email: ayyubkhan.real@gmail.com

Annotatsiya: Sun'iy intellekt so'nggi o'n yilliklarda tobora ommalashib bordiki, bu ommalashuv va keng miqyosda foydalanish jamiyatning deyarli har bir sohasiga kirib borib o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Shunisi e'tiborga loyiqki, raqamli ta'lim jarayonlarida sun'iy intellektning integratsiya qilinishi bu jarayonlarda ishlab kelayotgan mexanizmlarni tubdan o'zgardi. Mazkur maqolada sun'iy intellektning ta'lim jarayonlarida, ayniqsa til o'rganish borasidagi foydali jihatlari va o'ziga xos qanday xususiyatlari mavjudligi haqida yoritiladi. Xususan, maqola yozish jarayonida ilmiy qarashlar tahlil qilindi va sun'iy intellektning o'quv avtonomiyasiga qanchalik darajada ta'sir qilishi yoritildi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, til o'rganish, raqamli ta'lim muhiti, raqamli texnologiyalar, til kompetensiyasi, mustaqil ta'lim, ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchi avtonomiyasi.

Аннотация: В последние десятилетия искусственный интеллект стремительно развивается и приобретает широкую популярность. Его активное внедрение и масштабное использование оказали значительное влияние практически на все сферы общественной жизни. Особенно заметно влияние искусственного интеллекта в системе образования, где его интеграция в цифровую образовательную среду существенно изменила традиционные механизмы обучения. В данной статье рассматриваются возможности и преимущества применения искусственного интеллекта в образовательном процессе, в частности в изучении иностранных языков. В ходе исследования были проанализированы различные научные подходы и мнения ученых, а также освещено влияние технологий искусственного интеллекта на формирование и развитие автономии обучающихся.

Ключевые слова: искусственный интеллект, изучение языка, цифровая образовательная среда, цифровые технологии, самостоятельное обучение, языковая компетенция, индивидуализация образовательного процесса, автономия обучающегося.

Abstract: In recent years, artificial intelligence has become increasingly common and has gained considerable attention across various sectors of society. Its extensive adoption and application have

significantly influenced numerous fields, including education. The widespread integration of artificial intelligence into digital learning environments has transformed many traditional mechanisms of the educational process. This article explores the potential and advantages of artificial intelligence in education, particularly in the context of language learning. During the preparation of the article, relevant scholarly perspectives were analyzed, and special attention was given to examining the extent to which artificial intelligence technologies contribute to the development of learner autonomy.

Keywords: artificial intelligence, language learning, digital learning environment, digital technologies, independent learning, language competence, personalization of education, learner autonomy.

Kirish. Tez sur`atlarda tobora jadallashib borayotgan raqamli ta`lim sharoitida sun`iy intellekt o`z o`rnini egallabgina qolmay, ta`lim jarayonida pedagog va o`quvchilar tomonidan duch kelinishi mumkin bo`lgan ko`plab jihatlarni soddalashtirishga va osonlashtirishga o`zining sezilarli ta`sirini o`tkazdi. Bir qancha Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlaridagi davlat va nodavlat ta`lim muassasalarida sun`iy intellektdan til o`rganuvchilar tomonidan keng miqyosda foydalanishi til o`rganishdagi ko`plab qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam berdi. Sun`iy intellekt yordamida, undan to`g`ri va oqilona foydalanish orqali bir qancha xorijiy tillarda og`zaki va yozma nutqni rivojlantirish, grammatik, sintaktik, va pragmatik xatolarni to`g`irlash o`rganuvchilar uchun juda katta qulaylikni ta`minlab berdi.

O`zbekistonning raqamli ta`lim sharoitida ham sun`iy intellektdan foydalanishni amalga borasida ko`plab Prezident farmonlari, qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi. Shu jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun`iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi qarorida ham sun`iy intellekt texnologiyalarini yoshlar orasida ommalashtirish, ta`lim muassasalarida va aholi orasida sun`iy intellektdan foydalanish bilim va ko`nikmasini oshirib kabi bandlar alohida belgilab o`tilgan [1].

**Sun`iy intellektning ommalashuvi.** Jahonning Amerika va Buyuk Britaniya kabi bir qancha rivojlangan mamlakatlarida sun`iy intellektga asoslangan raqamli ta`lim islohotlari allaqachon amalga oshirilib, o`z samarasini ko`rsatib kelmoqda [2]. Sun`iy nafaqat xizmat ko`rsatish va ishlab chiqarish, balki ta`lim sohasida ham o`zining muhim rolini saqlab qolmoqda. Misol uchun, dunyoning yetakchi kompaniyalari bo`lgan Google va Amazon kabi korporatsiyalari SI ga asoslangan qurilmalarni ishlab chiqarish orqali jahon bozorida o`z o`rniga ega bo`lish ko`plab investitsiya kiritmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri

sunʼiy intellekt orqali erishiladigan yuqori samaradorlik, vaqt tejallishi va borgan sari aniqlashib borayotgan maʼlumotlarni analiz-sintez qilish va uning asosida mustaqil qarorlar qabul qila olish qobiliyati boʻlib, bu qulayliklar til oʻrganish jarayonida ham oʻrganuvchilar tomonidan duch kelinishi mumkin boʻlgan bir qancha qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Sunʼiy intellektning individuallashtirish xulosalar berishi, xatolarni batafsil yoritib berishi, noʻtoʻgʻri qoʻllangan soʻzlarni va grammatik xatolarni tahlil qilib bera olishi va turli til koʻnikmalari va malakalarini rivojlantirish uchun maxsus yaratilgan SI suhbat botlari va ilovalari mavjudligi uning ommalashuvini yanada tez surʼatlarga olib chiqdi.

Sunʼiy intellektning oʻziga xos xususiyatlari. Rivojlanib borayotgan taʼlim sharoitida sunʼiy intellekt vositalari til oʻrganish jarayonlariga sezilarli darajada oʻz taʼsirini oʻtkazib kelmoqda. Ayniqsa, ingliz tiliga asoslangan ovozli assistentlar, yozish, gapirish, va lugʻat yodlash uchun yaratilgan alohida ilovalar, SI chatbotlar mavjudligi buni isbotlaydi.

Birinchi xususiyat shuki, talabalar ingliz tilini oʻrganish jarayonida oʻzlarining ogʻzaki nutqlarini ChatGPT kabi sunʼiy intellekt vositalari yordamida muntazam va tizimli foydalanish orqali til oʻzlashtirishni yanada osonlashtirish ehtimoli yuqori. Yaʼni, til oʻrganuvchilar mustaqil taʼlim olish imkoniyatiga ega boʻlish bilan birgalikda, oʻzlarining bilim darajasiga, oʻrganish tezligiga, va oʻrganuvchi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi individuallashtirish oʻquv materiallarini va mashqlarini taqdim etadi. Buning natijasida, oʻquvchi oʻzining xatolari ustida ishlab ularni tezda toʻgʻirlash imkonini beradi. Bu jarayon, shuningdek, anʼanaviy sinf darslarida oʻquvchi yozma ishiga yoki ogʻzaki nutqiga beriladigan avtomatik xulosalarni kutmay qisqa vaqt ichida xatolarni bartaraf etib, oʻrganish jarayonini tezlashtirishga imkon yaratadi [3]. Bu kabi xulosalar oʻqituvchi tomonidan berilishi mumkin boʻlgan xulosalardan tubdan farq qiladi, yaʼni oʻquvchiga kam bosim oʻtkizadi, boʻyalgan xatolardan koʻra avtomatik toʻgʻirlangan xatolar oʻquvchilar tomonidan yaxshi qabul qilinadi.

Ikkinchidan, IELTS, TKT, CEFR, va ITEP kabi xalqaro miqyosda tashkil etiladigan ingliz tili imtihonlariga tayyorlanish jarayonida oʻquvchilar duch kelishi mumkin boʻlgan yana bir muammolardan biri yozish va gapirish koʻnikmasini rivojlantirishdagi qiyinchilikdir. Sunʼiy intellekt yordamida oʻquvchilar darsdan tashqari ishlar sirasiga kiruvchi individual (yakkama-yakka) ishlarni tashkil qilish ancha osonlashadi [4]. Yaʼni guruhdan oldinda yoki orqada qoluvchilar darsdan tashqari mashgʻulotlarda mustaqil ravishda sunʼiy intellekt vositalari yordamida oʻz darajasiga mos keladigan esselar, yozish uchun ishlatish

mumkin boʻlgan akademik lugʻatlar va gapirish koʻnikmasini rivojlantirish uchun oʻquvchilarga notanish mavzularga avtomatik javob tayyorlashda koʻp tilli (ingliz-oʻzbek, ingliz-rus, yoki boshqa tillarda) javoblarni tayyor holda olib, uni oʻzlariga moslash imkonini beradi. Buning natijasida, oʻquvchi avtonomiyasi kabi koʻnikmalar shakllana boshlaydi, oʻrganish jarayonini tezlashtiradi va kuchli taraflarini aniqlab oʻzlarining kuchsiz jihatlari ustida koʻproq ishlash imkoniyati paydo boʻladi.

Uchinchi xususiyat shuki, sunʼiy intellektga qisman boʻlsada asoslangan Quizlet va Kahoot kabi bir qancha taʼlim platformalarida individuallashgan oʻyinlar oʻquvchilarning ichki motivatsiyasini oshirib, mustaqil oʻrganish jarayonini tezlashtiradi. Anʼanaviy metodlarga taqqoslaganda, bugungi oʻquvchilari interfaol va zamonaviy metodlarga koʻproq moyillik koʻrsatib, ularning doimiy tarzda sustlashmay taʼlim olish imkonini beradi. Shuningdek, SI yordamida amaga oshiriladigan adaptiv oʻqish muhiti har bir oʻquvchi individual yondashishga, murakkab tushunchalarni ularning darajasiga mos tarzda yetkazib beradi eshitish, oʻqish, yozish va gapirish kabi til koʻnikmalarini turli darajalarga (B1,B2,C1)ga moslab beradi [5].

Xulosa. Sunʼiy intellektning kirib kelishi til oʻrganish jarayonlariga sezilarli darajada taʼsir koʻrsatdi. Shuningdek, taʼlimning mustaqil til oʻrganish jihatini yangi jihatlarini ochib berib, koʻplab oʻquvchilarning ikkinchi tilni oʻzlashtirishda duch kelishi mumkin boʻlgan muammolarni hal qilish imkoniyatini yaratib berdi.

Biroq, bugungi tobora jadallashib borayotgan raqamli texnologiya muhitida sunʼiy intellektga boʻlgan talabning yuqoriligi bir qancha xavotirlarga sabab boʻlishi mumkin. Chunki, SI vositalaridan til oʻrganish maqsadlarida, xususan ingliz tilini oʻrganishi jarayonida akademik halollik eng birinchi ustuvor vazifa boʻlmas ekan, oʻquvchilarda til oʻrganish jarayoni aksincha boʻlishi mumkin [6]. SI ning koʻplab foydali jihatlarini rad etib boʻlmasada, akademik halollikni taʼminlash maqsadida dunyoning bir qancha universitetlarida, maktablarda va boshqa taʼlim muassasalarida sunʼiy intellektdan foydalanish cheklangan. Shu sababli, oʻquvchilarda SI vositalaridan toʻgʻri va maqsadli foydalanish madaniyatini shakllantirish alohida eʼtibor talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Sunʼiy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori. – Toshkent, 2024.

2. U.S. Department of Education, Office of Educational Technology. *Artificial Intelligence and the Future of Teaching and Learning: Insights and Recommendations*. – Washington, DC, 2023.

3. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Boston: Center for Curriculum Redesign. (2019).
4. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
5. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR)*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
6. Balalle H., Pannilage S. *Reassessing academic integrity in the age of AI: A systematic literature review on AI and academic integrity*. Social Sciences & Humanities Open, 2025.
7. Zakirovich, D. Z. (2025). Integrative language teaching to students of chemistry faculty. Prospects of teaching English for professional purposes in non–philological higher education institutions: problems and solutions, 383-389.
8. Dehkhonova, D. A. (2024). The classification of lexical units with financial position according to scientists view. Academic research in educational sciences, 5(cspu conference 1), 542-549.

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON THE PROCESS OF LEARNING ENGLISH

Xabibullayeva Moxinur Nodirbek qizi

Scientific Supervisor: Odilboyeva Umida Zafarjon qizi

Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: In our modern era, artificial intelligence has rapidly transformed in many fields: medicine, business and marketing, entertainment including education. In the sector of English language learning AI-driven tools have significantly enhanced language acquisition processes. This article examines the impact of AI on English language learning, highlighting its benefits, challenges, and future implications. The study argues that while AI offers personalized learning experiences, immediate feedback, and increased accessibility, careful pedagogical integration and ethical considerations remain essential for sustainable and effective implementation.

Key words: artificial intelligence, english language learning, adaptive learning, educational technology, natural language processing.

Аннотация: В современную эпоху искусственный интеллект стремительно развивается и оказывает значительное влияние на такие сферы, как медицина, бизнес и маркетинг, индустрия развлечений и образование. В области изучения английского языка инструменты, основанные на искусственном интеллекте,